“CHO‘LPONNING “KECHA VA KUNDUZ” ROMANIDA AYOL QISMATI: ZEBI VA QURVONBIBI TAQDIRI TALQINI”

Soatova Ruxshona Safarmamat qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
26.03 guruh talabasi
soatovaruxshona924@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida ayolning jamiyat va oila hayotidagi o‘rni, uning orzu-umidlari, erkinlikka intilishi hamda hayotiy sinovlari Zebi va Qurvonbibi obrazlari orqali tahlil etiladi. Asarda tasvirlangan ayollar hayoti, ularning ichki dunyosi, jamiyatdagi mavqei va mavjud muhit ta’sirida yuzaga kelgan ziddiyatlar tadqiq qilinadi. Shuningdek, yozuvchining ayol ruhiyatini ochib berishdagi badiiy mahorati, davrning eskicha qarashlari, ijtimoiy tengsizlik va ayollar erksizligining inson taqdiriga ta’siri ilmiy-badiiy jihatdan yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Cho‘lpon, “Kecha va kunduz” romani, Zebi, Qurvonbibi, ayol taqdiri, ayol erki, milliy qadriyatlar, ijtimoiy tengsizlik, oila, jamiyat, ruhiy kechinmalar.

Аннотация: В данной статье анализируется роль женщин в обществе и семейной жизни, их надежды и мечты, стремление к свободе и жизненные испытания в романе Чулпан «Ночь и день» через образы Зеби и Курванбиби. Изучаются жизни женщин, изображенных в произведении, их внутренний мир, их положение в обществе и конфликты, возникающие под влиянием существующей среды. Также научно освещается художественное мастерство автора в раскрытии женской психологии, устаревшие взгляды эпохи, влияние социального неравенства и бессилия женщин на судьбу человека.

Ключевые слова: Чулпан, роман «Ночь и день», Зеби, Курванбиби, судьба женщин, женская свобода, национальные ценности, социальное неравенство, семья, общество, духовные переживания.

Abstract: This article analyzes the role of women in society and family life—along with their dreams, aspirations for freedom, and the trials they face—as depicted through the characters Zebi and Qurvonbibi in Cho‘lpon’s novel “Night and Day”. The study examines the lives of the women portrayed in the work, exploring their inner worlds, their status within society, and the conflicts that arise under the influence of their environment. Furthermore, it provides a scholarly examination of the author’s artistic skill in revealing the female psyche, as well as the impact that the era’s archaic attitudes, social inequality, and the lack of agency afforded to women have on individual human destinies.

Keywords: Cho‘lpon, the novel “Night and Day”, Zebi, Qurvonbibi, the fate of women, women’s freedom, national values, social inequality, family, society, inner emotional experiences.

O‘zbek adabiyoti tarixida o‘zining betakror ijodi, teran fikrlari va millat ozodligi yo‘lidagi intilishlari bilan alohida o‘rin egallagan ijodkorlardan biri Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpondir. Abdulhamid Cho‘lpon 1897-yilda Andijon shahrida tavallud topgan. Uning adabiy faoliyati she’riyatdan boshlangan bo‘lsa-da, keyinchalik nasr, dramaturgiya va tarjimachilik sohalarida ham samarali ijod qilgan. Adibning «Uyg‘onish», «Buloqlar», «Tong sirlari», «Soz» kabi she’riy to‘plamlari, «Oydin kechalarda», «Qor qo‘ynida lola», «Novvoy qiz», «Do‘xtir Muhammadyor» kabi hikoyalari, «Yorqinoy» singari dramatik asarlari uning serqirra ijodkor ekanligini namoyon etadi. [1] Cho‘lpon nafaqat badiiy ijodi, balki adabiyot va uning inson hayotidagi o‘rni haqidagi qarashlari bilan ham alohida ahamiyatga ega. Adib adabiyotni inson qalbini uyg‘otuvchi, ruhiyatini poklovchi va ma’rifatga yetaklovchi kuch sifatida baholagan. Uning tabiriga ko‘ra:"Adabiyot chin ma’nosi bilan o‘lgan, so‘ngan, o‘chgan, majruh, yarador ko‘ngilga ruh bermoq uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydigan, o‘tkir yurak kirlarini yuvadigan toza ma’rifat suvi, chang va tuproqlar to‘lgan ko‘zlarimizni artib, tozalaydigan buloq suvi bo‘lgani uchun bizga g‘oyat kerakdir”[2].Darhaqiqat, adabiyot inson va jamiyat hayotidagi qiyin jarayonlarni, kishilarning ichki kechinmalari, orzu-umidlari va taqdirini aks ettiruvchi muhim ma’naviy vositadir.Cho‘lponning adabiyotga bo‘lgan bunday yuksak qarashlari uning badiiy

asarlarida ham o‘z aksini topgan. Xususan, adibning “Kecha va kunduz” romani inson taqdiri, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va davr muammolarini badiiy yoritgan muhim asarlardan biridir.Mazkur roman 1936-yilda nashr etilgan bo‘lib, unda XX asr boshlaridagi Turkiston hayoti, ijtimoiy munosabatlar, oilaviy muhit va inson taqdiri bilan bog‘liq muammolar yoritilgan. Asarning faqat «Kecha» qismi bizgacha yetib kelgan. “Kunduz”qismining mavjud bo‘lgan-bo‘lmagani haqida adabiyotshunoslikda turli qarashlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar yozuvchi ikkinchi qismni yozishga ulgurmagan deb hisoblasa, boshqalari uning keyinchalik yo‘qolganini taxmin qiladilar. Shuningdek roman xorijiy tadqiqotchilar va tarjimonlarning ham e’tiborini tortgan. Fransuz sharqshunosi Stefan Dyuduanon asarni fransuz tiliga tarjima qilgan.[3] Amerikalik tarjimon Kristofer Fort esa romanni ingliz tiliga o‘girib, «Night and Day» nomi ostida nashr ettirgan.[4] Cho‘lpon ijodi va uning adabiy merosi Naim Karimov, Begali Qosimov, Ozod Sharafiddinov kabi adabiyotshunos olimlar tomonidan ham o‘rganilgan.[5]

Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida ham davrning ijtimoiy muammolari, xalq hayoti va inson taqdiri turli obrazlar orqali yoritilgan. Ayniqsa, asarda ayollar hayoti, ularning jamiyat va oiladagi o‘rni, orzu-istaklari hamda erksizligi muhim o‘rin tutadi. Yozuvchi Zebi va Qurvonbibi obrazlari orqali o‘sha davr ayollarining turmush tarzi, ruhiy kechinmalari va hayotiy qarashlarini ochib beradi. Romanning markaziy obrazlaridan biri — Zebi. Avvalo, obraz tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, Obraz keng ma’noda voqelikni, hayot hodisalarini yoki inson qiyofasini tasavvurda aks ettirish, tor ma’noda esa san’at va adabiyotda ijodkor tomonidan yaratilgan jonli, ta’sirchan siymodir. [6] Badiiy obraz orqali yozuvchi qahramonning tashqi qiyofasi, xarakteri, ichki kechinmalari va hayotga munosabatini ochib beradi.Cho‘lpon yaratgan Zebi obrazi ham o‘zining samimiyligi, beg‘uborligi va hayotga bo‘lgan umidlari bilan ajralib turadi. U yosh, go‘zal, beg‘ubor va hayotga umid bilan qaraydigan sodda qiz sifatida tasvirlanadi. Ayniqsa, sud jarayonidagi holatlarda uning dunyoqarashi va ruhiy kechinmalari yaqqol namoyon bo‘ladi. Hatto o‘zining Sibirga surgun qilinishi bilan bog‘liq vaziyatda ham Zebi uyiga qanday qaytishi haqida o‘ylaydi. Bu holat uning hayotdagi qiyin vaziyatlarni to‘liq anglab yetmaganini, o‘z taqdiriga nisbatan ojiz va ko‘nikuvchan bo‘lganini ko‘rsatadi.Uning

qalbida erkin yashash, o‘z istaklari asosida hayot qurish va baxtli bo‘lish orzusi mavjud. Biroq Zebi yashayotgan muhitda qiz bolaning xohish-istaklari ko‘pincha e’tiborga olinmaydi. Uning taqdiri oilaviy qarorlar, urf-odatlar va jamiyatdagi mavjud qarashlar ta’sirida shakllanadi. Shu jihatdan Zebi obrazi orqali yozuvchi ayol erkinligining cheklanishi va uning shaxsiy istaklari bilan ijtimoiy muhit o‘rtasidagi ziddiyatni ko‘rsatadi.

Romandagi muhim ayol obrazlaridan yana biri — Qurvonbibi. U Zebining onasi sifatida tasvirlanadi. Qurvonbibi obrazi orqali yozuvchi o‘sha davr ayollarining oiladagi o‘rni va turmush tashvishlarini aks ettiradi. U oilasi, farzandlari va ro‘zg‘or tashvishlari bilan band bo‘lgan, hayotning turli qiyinchiliklarini boshidan kechirgan ayoldir. Qurvonbibi qizining kelajagi haqida qayg‘ursa-da, uning taqdirini belgilashda mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatiga ega emas. Turmush o‘rtog‘i Razzoq so‘fining qattiqqo‘lligi va hukmronligi Qurvonbibining mustaqil fikr bildirish imkoniyatini cheklaydi. Hatto uning «Fitna» deb atalishi ham oiladagi munosabatlar va ayolga bo‘lgan munosabatning o‘ziga xos ko‘rinishini namoyon etadi. Bu orqali yozuvchi ayrim oilalarda ayolning shaxs sifatidagi qadri yetarlicha emasligini ko‘rsatadi .

Zebi va Qurvonbibi taqdirini yoritishda Razzoq so‘fi obrazining ham ahamiyati katta. U oilada hukmronlik qilishga intiladigan, o‘z qarashlari va talablarini boshqalarnikidan ustun qo‘yadigan kishi sifatida tasvirlanadi. Uning qattiqqo‘lligi va oiladagi hukmronligi xotin-qizlarning erkin fikrlashi hamda mustaqil qaror qabul qilishiga to‘sqinlik qiladi. Romanda Razzoq so‘fi xonadonidagi muhitga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, uning oilaviy qarorlarini ham bir jihatdan tushunishga harakat qilish mumkin. Zero, hech bir ota-ona farzandiga yomonlikni ravo ko‘rmaydi, aksincha, uning yaxshi yashashi, farovon hayot kechirishini istaydi. Razzoq so‘fi ham qizini o‘zlari yashayotgan oddiy turmush sharoitidan ko‘ra yaxshiroq hayot kutayotgan xonadonga uzatish orqali uning kelajagini ta’minlamoqchi bo‘lgan, deb talqin qilish mumkin. Biroq uning bu qarorida muhim bir jihat e’tibordan chetda qoladi ,u qizining baxtini o‘z qarashlari asosida belgilaydi, Zebining istak va roziligini esa yetarlicha hisobga olmaydi.Bu holat o‘sha davrda keng uchragan, qizlarni hali yoshligidanoq turmushga berish odati bilan ham bog‘liq edi. Bunday oilalarda

ko‘pincha qizning kelajagi ota-onasi tomonidan hal qilinar, uning shaxsiy xohish-istaklariga esa ikkinchi darajali masala sifatida qaralardi.

Har qanday badiiy asarda voqealar rivojini belgilaydigan, qahramonlar hayotini keskin o‘zgartirib yuboradigan muhim ziddiyat mavjud bo‘ladi. Bu — konflikt deb ataladi. Keng ma’noda konflikt — bu ikki yoki undan ortiq tomonlarning (insonlar, guruhlar yoki jamoalarning) qarashlari, manfaatlari, maqsadlari yoki qadriyatlari o'rtasidagi o'zaro nomutanosiblik va keskin to'qnashuvidir.[7] Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romanida ham konflikt Zebi taqdirini belgilagan voqealar orqali ochib beriladi. Xususan, uning Akbarali mingboshiga uzatilishi shunchaki oilaviy qaror emas, balki qizning shaxsiy istaklari bilan ota-onaning qarashlari va davrning ijtimoiy tartiblari o‘rtasidagi ziddiyatni yuzaga chiqaradi. Zebi uchun baxt — o‘z xohishiga ko‘ra yashash bo‘lsa, uni o‘rab turgan muhitda qizning fikri va roziligi ko‘pincha e’tibordan chetda qoladi. Demak, romandagi konflikt faqat alohida insonlar o‘rtasidagi kelishmovchilik emas, balki inson erki va eskicha ijtimoiy qarashlar o‘rtasidagi kurashdir.

Konfliktning keyingi rivoji Zebi taqdirida yanada keskin namoyon bo‘ladi. Uning Akbarali mingboshiga turmushga berilishi bilan boshlangan voqealar oxir-oqibat fojiali tus oladi. Akbarali mingboshining vafotidan so‘ng Zebi uning o‘limida ayblanib, sud oldida javob berishga majbur bo‘ladi. Garchi u bu voqeaga sababchi bo‘lmasa-da, o‘zining aybsizligini isbotlay olmaydi. Natijada Zebi Sibirga surgun qilish jazosiga hukm etiladi.Roman voqealarining bunday yakunlanishi Zebi taqdiridagi adolatsizlikni yanada yaqqol ko‘rsatadi. Uning hayoti va kelajagi o‘z xohishidan tashqari qabul qilingan qarorlar hamda jamiyatdagi eskicha qarashlar ta’sirida barbod bo‘ladi. Shu tariqa Cho‘lpon Zebi obrazi orqali ayolning erki, roziligi va huquqlari e’tiborsiz qoldirilgan muhitda inson taqdiri qanday fojiali yakun topishi mumkinligini ochib beradi.

Zebi taqdiri adolatsizlik bilan yakun topadi. Biroq asar nomidagi “Kecha” va “kunduz”tushunchalarini ramziy ma’noda talqin qiladigan bo‘lsak, “kecha” jaholat, adolatsizlik va inson erkinligining cheklanishini, “kunduz” esa ma’rifat, ozodlik va yorug‘ kelajakka intilishni anglatadi. Xalqimizda «Oyning o‘n beshi qorong‘i bo‘lsa, o‘n beshi

yorug‘» degan naql bor.[8] Shu nuqtayi nazardan, Zebi hayotining “kecha”si iztirob va adolatsizlik bilan tugagan bo‘lsa-da, asar nomidagi “kunduz” uning kelajagi uchun umid sifatida talqin qilinishi mumkin. Balki romanning hali tasvirlanmagan “kunduz” qismida Zebi ozodlikka erishar, o‘zi orzu qilgan baxtli hayotga yetishar?

Xulosa qilib aytganda, Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romani kitobxonni inson qadri, ayol erkinligi, adolat va tenglik haqida chuqur mushohada yuritishga undaydi. Zebi va Qurvonbibi taqdiri orqali yozuvchi o‘sha davr ayollarining og‘ir hayoti, orzu-umidlari va erksizligini mahorat bilan yoritadi. Asar bugungi kun bilan taqqoslanganda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Chunki bugungi kunda qizlarning erta turmushga berilishidan ko‘ra, ularning ta’lim olishi, kasb egallashi va kelajagini mustaqil belgilashiga katta e’tibor qaratilmoqda. Zero, bilim olgan inson, avvalo, o‘z qadr-qimmatini anglaydi, huquq va erkinliklarini taniydi hamda hayotda mustaqil qaror qabul qilishni o‘rganadi. Ilmli va dunyoqarashi keng qiz o‘z kelajagini ongli ravishda qurib, jamiyatda munosib o‘rin egallay oladi. Shu jihatdan roman bizga ayolning baxti uning fikri, tanlovi va erkinligi hurmat qilinadigan jamiyatdagina ta’minlanishini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Sharq, 1995.
2. Dudoignon, Stefan. Cho‘lpon ijodi haqidagi tadqiqotlar.
3. Fort, Christopher. Night and Day.
4. Jumanova Sh. «Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani ingliz tili tarjimasida tarjimon Christopher Ford talqini».
5. Karimov N. Cho‘lpon hayoti va ijodiga oid tadqiqotlar.
6. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik.
7. Quronov D. Adabiyotshunoslik asoslari.
8. O‘zbek xalq maqollari.